

**MIYON RUDAX MUZOFOTI TARIXINING MANBAASHUNOSLIK VA
TARIXSHUNOSLIK TAHLILI**

*Namangan davlat universiteti 1-kurs
Magistranti Osimova Yodgora*

Ma'lumki, milodiy I ming yillikning so'nggi choragidan boshlab islom dini tarqalishi munosabati bilan Markaziy Osiyoning janubiy mintaqasi xalqlari tarixi, madaniyati, ma'naviy olamida tub burulish ro'y berdi. Qadimiy zardushtiylik, buddaviylik shuningdek, barcha ibtidoiy ishonch va ibtidoiy diniy qarashlar barham topdi. Mintaqada islomga qadar erishilgan yuksak sivilizatsiya jarayonlari darajasi hamda ilmiy va empiric bilimlar islom davrining musulmon renessansi shroitida transformasiyalashib borishi barobarida islom dinining o'ziga xos Markaziy Osiyo talqini vujudga keldi. Arxeologik yodgorliklar materiallari asosida madaniy, ma'naviy, mafkuraviy masalalar nihoyatda kam o'rganilgan. Binobarin, arxeologlar turli obyektlarni o'rganish asnosida aksariyat hollarda topilmalarga funksional baho berish masalarida tahminiy mulohazalar doirasida qoladilar.

“Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirishga rejalashtirilgan Namangan viloyati Norin tumani hududidagi Uchtepa-2 Buloqmozor arxeologik yodgorligi materiallari Miyon Rudax muzofotini o'rganish uchun arxeologik jihatdan birlamchi manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ushbu obyekt Farg'ona vodiysi uchun otashparastlik va boshqa diniy qarashlar tarixini o'rganish uchun favqulodda yangi ma'lumotlar bermoqdaki, bular vodiya tarixida diniy, ma'naviy, mafkuraviy munosabatlar tarixi uchun yangi sahifa ochadi, deyishga asos beradi.

Bu obyektning turli hil diniy predmetlari va ko'p sonli altar-o'choqari, qora tosh kultiga topilishi va ma'bud, sanamlar, toshga ishlangan musavvirlik san'atining namunalari, ibodatxonaning original planirovkasi va boshqa omillar tomoshabin e'tiborini o'ziga tortuvchi ichki va xorijiy turistik marshrut tashkil etishni taqozo etadi.

Bu hol muzofot hududlarini Respublika va xalqaro turizm obyektlari qatoriga kiritish imkonini beradi. Bu o'ta muhim masalani hal qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Respublikada ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish masalalariga qaratilgan farmonlari va bu sohadagi hukumat qarorlariga aynan mos tushadi.

Hozirgi kundagi Norin va Qoradaryo oralig'ida joylashgan maskan o'rta asrlrdagi birlamchi manbalarda “Miyon ruzvan”, “Miyon ruzan”, “Miyon rudax”, “Ikki suv orasi” kabi nomlar bilan atalgan.

Tadqiqotchi R.T.Xudayberganov Istaxriyning “Kitob al-masalik val mamalik” asarini tadqiq etar ekan, qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, u arab tilidagi “Miyon rudax” tarixiga oid manbalarni qiyosiy tahlil qildi. “Miyon ruzan” (Istaxriy

matnlarida), Muqaddasiy uning nomini “Miyonrudiyya” shaklida qayd etgan.[6:182].Bu nom fors tilida daryolar orasi ma’nosini bildiradi.Bu viloyatning turkcha nomi “Ikki suv orasi” [5-491].bo’lgan.Chunki, u Norin va Qoradaryo orasida joylashgan.Miyon ruzan daryolar orasidagi shaxar, qishloqlari ko’p , boshqa nomi Xaylam.

...Miyon ruzan viloyatining bosh shaxri Xaylom.Shaxarning nomi Xaylom shaxrining mahalliy hukmdori Xayr ibn Abul Xayr- Xaylom shaxrining hukmdori.[6:317].

Shuningdek, muallifi noma’lum “ Hudud ul-olam” asarida ham Xaylom haqida tegishli ma’lumotlar uchraydi.”Xatlom-shaxarcha, Xuroson amiri Nasr ibn ahmad shu yerda tug’ilgan ekan.[7:16].

Shuni ham e’tiborga olish lozimki, Miyon rudah tarixiy muzofoti masalalari xorij tadqiqotchilarning asarlarida alohida tadqiqot obyekti bo’lgan emas.Ammo, xorijiy manbashunos olimlar O’rta osiyo tarixiga oid ilmiy manbalarni tadqiq qilish jarayonida bevosita Xaylom okrugi (Miyon rudah) masalariga ham e’tibor qaratganlar.Shulardan biri gollandiyalik olim , leyden universiteting professori Gue(goeje) , Mixael yande hisoblanadi.1886-yildan boshlab Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a’ziligiga qabul qilingan olim o’z ilmiy ishlarida al-Istaxriy, ibn Xavqal, al-Muqaddasiy, Qudoma, ibn Xordoddek va boshqalarning arab tilidagi tarixiy asarlariga sharhlar yozib, tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, o’rta asr qo’lyozmalarini o’rgangan xorijlik olimlardan Tishner, Foret, lure, Chabbi o’z tadqiqotlarida Farg’ona vodiysidagi , xususan, Xaylom muzofotidagi aholi punktlariga ham to’xtalib o’tganlar.

Farg’ona vodiysida arxeologik tadqiqotlar XIX asr oxirlaridan boshlab dastlab soha ishqibozlarining kuzatuvlari va ilk izlanishlari davri sifatida ikki asosiy bosqichga bo’linadi.Boshlang’ich davrlarda arxeologik ishlar tavsifiy, rekognostik harakterda , so’ngra tashkiliy qazishmalar shaklida borgan edi.

Kalit so’zlar:Xaylom, Miyon rudah, Miyon ruzvan, tarixiy manbalar, ikki daryo oralig’i, Uchtepa2, otashparastlik ibodatxonasi, diniy mafkura, arxeologik yodgorlik,turizm.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati

1. Asqarov.A.A Poselenie Kuchuktepa-Tashkent.Fan,1979-112 b
2. Asqarov.A.A.”O’zbek xalqining kelib chiqishi” Toshkent : O’zbekiston, 2015, 660-b
3. Istaxriy Kitob al-mamalik(tadqiqot , arab tilidan tarjima , izoh R.Xudayberganov) Toshkent Fan, 2019, 182-b
4. Xudud ul-olam, Toshkent, O’zbekiston, 2008 16-b